

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi

markazi direktori

L. X. Masadjanova
2025 y.



«TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori

L. X. Masadjanova

2025y.



Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

**Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va
jamoat salomatligi qo‘mitasi vrach
yordamchisi (Tibbiy profilaktika ishi)**

(sikli bo‘yicha ixtisoslashtirish guruhlar uchun)

O‘QUV DASTURI

(288-kredit)

Toshkent-2025 yil

TUZUVCHILAR:

M.E.Qarshibayeva

Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi Guliston filiali
direktori

M.X.Yakubova

Toshkent shahar Yunusobod tumani
SEO va JSQ shifokor- epidemiolog

TAQRIZCHILAR:

O.K.Sultanov

Toshkent shahar Yunusobod tumani
SEO va JSQ bo'limi boshlig'i

S.A.Muxamedjanova

Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

O'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12 2025 y.

bayonnoma № 6



Pedagogik kengash raisi

L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi,
tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12 2025 y.

bayonnoma № 5

1.Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 27 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi SSV huzuridagi Sanitariya Epidemiologik Osiyishtalik Jamoat Salomatligi qo‘mitasi faoliyatini tashkil qilish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi PF-230-sonli farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o‘quv fanining mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. “Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi vrach yordamchisi” o‘quv dasturi yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, 3 yildan 7 yilgacha mehnat stajida uzilish bo‘lgan o‘rta tibbiyot xodimlarini 288 kredit ixtisoslashtirish uchun mo‘ljallangan. Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo‘lib: kasbiy rivojlanish modulida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish haqida” 255-sonli buyrug‘i ijrosini bajarish maqsadida “Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish”moduli kiritildi. Kasbiy rivojlanish moduli ma‘naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm–fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilib, tibbiy ta’limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasida vrach yordamchisi sifatida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o‘rta tibbiyot xodimlari lozim bo‘lgan yangi bilim va ko‘nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi lozim) yetarli darajada o‘zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

1.1. Maqsad:

O'qish natijasida "SEOJSQ vrach yordamchisi" bo'yicha hamshiralarning mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish, kasbiy faoliyat uchun zarur yangi kompetensiyalarni egallash, mavjud malaka doirasida ularning kasbiy darajasini oshirish. SEOJSQ vrach yordamchilarining har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholi o'rtasida salomatlik ko'rsatkichlarini yanada oshirish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.2. Vazifalar:

- Ixtisoslashtirish kursi o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish;
- s
- O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining hozirgi davrdagi o'rni, oldiga qo'yilgan vazifalari, maqsadlari, ularning tuzilishidagi yangiliklar bilan tanishtirish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- Etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- Aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- Tashqi muhit omillarini (kimyoviy, fizikaviy, biologik, psixogen va ijtimoiy) inson salomatligiga salbiy ta'siri va keltirib chiqaradigan kasalliklarini oldini olish, mehnat qilish qobiliyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'rgatish;
- Ichimlik suvi, ovqat mahsulotlari, atmosfera havosi hamda tuproqni ifloslantiruvchi omillarni tahlil qilish usullarini hozirgi zamon texnikasi va zamon talablari darajasida o'rgatish;
- Aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini uyushtirishni o'rgatish;
- Shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olishdagi yangiliklar bilan tanishtirish;
- Zamonaviy sterilizatsiya va dezinfeksiya konsepsiyasi, usullari, vazifalari borasidagi bilim va ko'nikmalarini yangilash;
- Favqulodda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti): O'quv dasturi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasida faoliyat yuritishni rejalashtirgan o'rta tibbiyot xodimlari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan, lekin mehnat stajida 3 yildan 7 yilgacha uzilish bo'lgan sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi vrach yordamchilari, hamda "Hamshiralik ishi", "Akusherlik ishi", "Davolash ishi" mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lib, "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati

vrach yordamchisi” lavozimida ishlash istagi bo‘lgan o‘rta tibbiyot xodimlari uchun mo‘ljallangan.

O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo‘llay oladigan mutaxassis bo‘lishi;
- SEOJSQ xodimining huquqiy me‘yorlarini, aholini yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini amalga oshirish;
- sanitariya-epidemiologiya xizmatida asosiy me‘yoriy xujjatlar va ular bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- sanitariya -gigiena, epidemiologiya haqidagi bilimlarga ega bo‘lish;
- tashqi muhit omillarining, ekologik muvozanat buzilishining inson sog‘ligiga ta‘sirini bilishi va ish jarayonida o‘rganishi;
- atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar haqida ma‘lumotga ega bo‘lish va uni ta‘sirini yo‘q qilish tadbirlarini amalga oshirishi;
- somatik va yuqumli kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini, kasallik o‘chog‘idagi vazifa va majburiyatlari haqida ma‘lumotga ega bo‘lish;
- shaxsiy va jamoa gigienasining ahamiyatini bilishi va aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib bora olishi;
- mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha gigienik normativlarni bilish;
- epidemiolog vrach yordamchilarining epid nazorat bo‘yicha olib boradigan ishlari va ularning ahamiyati mohiyatini bilishi;
- aholiga tibbiy – profilaktika, yuqumli kasalliklarni oldini olishda o‘rta tibbiyot xodimining roli haqida ma‘lumotga ega bo‘lishlari;
- sanitar epidemiologik tadbirlarning o‘rni va ahamiyati haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lishi;
- dezinfeksiya haqida tushuncha, asosiy vazifalarini bilishi;
- o‘z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, sanitar-gigienik, profilaktik vrach ko‘rsatmalarini amalga oshirish;
- shoshilinch holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam choralari amalga oshirish;
- mutaxassisligi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan holda, uzluksiz o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

O‘quv dasturining dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘i ijrosini ta‘minlash doirasida, amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralari qo‘llash, shuningdek tibbiyot huquqi bo‘yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o‘zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 288 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O‘qish shakli:

- kunduzgi – o‘qish, ishdan ajralgan holda.
- on/offline, masofaviy / an’anaviy o‘qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda.

1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi: Mashg‘ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” O‘zR SSV 2020 yil 15 iyundagi № 160 buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg‘ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo‘ladi. Tushlik - 30 daqiqa

1.9. O‘qish tugagandan so‘ng: o‘quv kursini to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi vrach yordamchisi” yo‘nalishi bo‘yicha ixtisoslashtirishdan o‘tgan tinglovchiga Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

H

Q‘lim (natijalari)dan so‘ng tinglovchi kompetensiyasi:

TALIM NATIJALARI.

■ sanitariya – epidemiologiya xizmatida asosiy me‘yoriy xujjatlarni rasmiylashtirish ko‘nikmalari rivojlanadi;

● aholi sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash doirasida aholi orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiriq etadi;

● zamonaviy sterilizatsiya va dezinfeksiya usullarini qo‘llash ko‘nikmalari takomillashadi;

● kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish ko‘nikmalarini yangilanadi;

● kommunal gigiena, mehnat gigienasi, bolalar va o‘smirlari gigienasi, davqatlanish gigienasi borasidagi bilim va ko‘nikmalarini yangilanadi;

● mehnat sharoitiga qo‘yiladigan yangi sanitariya gigienik normativlarni biladi;

● vaksinalarni saqlash, transportirovka qilish qoidalariga amal qilish ko‘nikmalari yangilanadi;

● immunoprofilaktikaning mazmuni, maqsadi va turlarini bilishi va mijozda emlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni bartaraf etish qobiliyati shakllanadi va yangilanadi;

● kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bilim va ko‘nikmalari yangilanadi.

a
s
h

t

a

h

l

i

l

l

s

i

n

3.DASTUR MAZMUNI.

3.1. “Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi vrach yordamchisi” 288 kredit ixtisoslashtirish kursi o‘quv rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	
1.0	Kasbiy rivojlantirish modullari	60	34	26	
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4	
1.3	Modul: Xorijiy til.	6	2	4	
1.4	Modul: Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.	6	6		
1.5	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.	6	2	4	
1.6	Modul: Infekcion nazorat.	12	8	4	
1.7	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.	6	2	4	
1.8	Modul: Favqulotda holatlarda va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.	12	6	6	
2.0	Mutaxassislik fani modullari	222	74	148	
2.1	Modul: SEOJSQ sohasiga oid me'yoriy hujjatlar. Yuqumli kasalliklarni oldini olishda o'rta tibbiyot xodimining faoliyati.	24	8	16	
2.2	Modul: Kommunal gigiena va jamoat salomatligi.	30	10	20	
2.3	Modul: Ovqatlanish gigienasi.	24	8	16	
2.4	Modul: Bolalar va o'smirlar gigienasi.	24	8	16	
2.5	Modul: Mehnat gigienasi. Mehnat sharoitiga qo'yiladigan sanitariya gigienik talablar.	36	12	24	

2.6	Modul: Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish.	36	12	24	
2.7	Modul: Davolash profilaktika muassasalari gigienasi. Shifoxonalar joylashishi va faoliyatiga qo'yilgan gigienik talablar.	18	6	12	
2.8	Modul: Immunoprofilaktika. Vaksinalarni saqlash, transportirovka qilish.	30	10	20	
3.0	Attestatsiya	6			6
	Jami:	288	110	172	6

“Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi vrach yordamchisi“ 288 kredit ixtisoslashtirish kursi o'quv modullarining mazmuni

1.1.Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim.Islohotlar markazida “Inson qadri uchun”degan ezgu tamoyil ustuvor.Yurtimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.“Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda sog‘liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo‘nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas’uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali

inson omilini kamaytirish, ochiq ma'lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

1.2.Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar. Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish. Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. "Tibbiyot informatikasi asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;

hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

1.3. Modul. Xorijiy til. Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralarga ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb "to be", "to have" Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar. Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini

Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

1.5. Modul. Infekcion nazorat. Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari

p
r

Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

1.6. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy

faollik. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish

0

1.8. Modul. Favqulotda holatlarda va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam

ko'rsatish. Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (traj usuli) va evakuatsiya qilish. Transportirovka qoidalari.

Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam kursatish:

-O'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam;

S- Jarohatlarda, suyak sinishlarda va Krash sindromida birinchi yordam;

2- Kuyishda birinchi yordam;

n

Q

v

a

M

- Elektrdan shikastlanishda birinchi yordam;
- O'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam;
- Bo'g'ilishda birinchi yordam;
- CHO'kishda birinchi yordam;
- Sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam;
- Hasharotlar chaqishida va xayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish.

O'tkir yurak qon tomir va nafas yetishmovchiligi, kelib chiqish sabablari. Nafas yullari obstruksiyasi. Yot jism nafas yullariga tushganda Geymlix usulini ko'llash texnikasi. Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak -o'pka reanimatsiyasi (**SAV**) va uni bajarish algoritmi. Kritik holatlar (xushdan ketish, kollaps, shok, koma). Turlari, sabablari, klinik belgilari va yordam ko'rsatish.

2.0. Mutaxassislik fani modullari.

2.1. Modul. SEOJSQ sohasiga oid me'yoriy hujjatlar. Yuqumli kasalliklarni oldini olishda o'rta tibbiyot xodimining faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4790-sonli qarori, chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6035 sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida" 393-sonli Qonunining mohiyati. Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining o'rni, oldiga qo'yilgan vazifalari, maqsadi, ularning tuzilishini tahlil qilish. SEOJSQ vrach yordamchisining lavozimlik burchlari va vazifalari.

Yuqumli kasalliklar, infeksiya jarayon, kasallik manbalari haqida tushuncha. Yuqumli kasalliklar turlari, ularning aholi o'rtasida tarqalishining sabablari. Aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlari. Yuqumli kasalliklarni oldini olishda o'rta tibbiyot xodimining tutgan o'rni va vazifalari. Sanitariya, oziq-ovqat, mehnat gigienasi, kommunal gigiena bo'linmasida yuritiladigan hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi. Zamonaviy zararsizlantirish usullari. Zamonaviy zararsizlantirish usullarini qo'llash chora-tadbirlari.

2.2. Modul. Kommunal gigiena va jamoat salomatligi.

Kommunal gigiena bo'limining maqsad va vazifalari. Ogohlantiruvchi va joriy nazoratni o'tkazishda qollaniladigan me'yoriy hujjatlar. Hisob shakllarini, sanitariya qoidalarini buzganligi, to'xtatish va ruxsat etmaslik to'g'risidagi qarorlarni rasmiylashtirish. Turar joylarni loyihalashtirish, atmosfera havosini va sanitariya holatini yaxshilash chora-tadbirlari. Aholi yashash joylarini tozalash usullarini qo'llash. Turar joy binolariga sanitariya – gigienik talablar. Suv ta'minoti manbalari va ichimlik suv sifati me'yorlari. Ichimlik suvga qo'yiladigan Davlat standartlari talablari. Suvning organoleptik, fizik, kimyoviy va bakteriologik tarkibini aniqlash. Suvni mexanik tarzda tozalash usullari. Tuproqning gigienik va epidemiologik ahamiyati. Tuproqni bakteriologik va gelmentologik tekshirishi uchun namunalarni olish. Turar-joy, davolash-profilaktika muassasalari gigienasi. Turar joy binosini sanitariya gigienik jihatdan tekshirish va kartasini rasmiylashtirish. Shovqin, vibratsiya darajasini aniqlash. Sanitariya gigiena tadbirlarini amalga oshirish,

yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni tarqalishini oldini olish va tashqi muhitning ifloslanishiga qarshi kurash choralari.

2.3. Modul. Ovqatlanish gigienasi.

Ovqatlanish gigienasi. Ovqat kaloriyasiga sanitariya-gigienik baho berish. “Oziq – ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi” qonun mohiyati va mazmuni. Asosiy ovqat mahsulotlari: oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, karbon suvlari, vitaminlar, mineral tuzlar va ularning fiziologik ahamiyati. Kamqonlik, buqoq, jinsiy zaiflikni kelib chiqishida ovqatlanishning roli. O‘rta tibbiyot xodimlarining lavozimlik vazifalari. Go‘sh t va go‘sh t mahsulotlarining inson organizmi uchun ahamiyati. Go‘sh t va go‘sh t mahsulotlarining sifatini belgilovchi me‘yoriy o‘lchovlar. Go‘sh t va go‘sh t mahsulotlarining sifatini belgilovchi me‘yorlarni tahlil qilish. Ovqatlanish gigienasi bo‘yicha ish yuritish. Oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘molga loyiqligini aniqlash usullari. Ovqat mahsulotlarini saqlash va transportirovka qilish. Umumiy ovqatlanish muassasalarini qurishni rejalashtirish, qurish va jihozlash, ekspluatatsiya qilishni sanitariya jihatidan nazoratni qilish. Oshxona xodimlarining shaxsiy gigienasi va sanitariya bilimni nazorat qilish. Oshxona xodimlarini dispanserizatsiyadan o‘tishini nazorat qilish. Ovqatdan zaharlanish. Zaharlanishlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.

2.4. Modul. Bolalar va o‘smirlar gigienasi.

Bolalar va o‘smirlar gigienasining vazifalari, tarkibiy qismlari. Bolalar va o‘smirlarning yoshiga mos sog‘lom turmush tarzi chora-tadbirlarni ishlab chiqish. Bolalar va o‘smirlar organizmining o‘sishi va rivojlanishining yoshga nisbatan anatomo-fiziologik xususiyatlari. Sanitariya vrach yordamchisining vazifalari. Bolalar muassasalarida sanitariya nazorati, o‘quvchilar salomatligini kuzatish. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar o‘rtasida o‘rta tibbiyot xodimlari lavozimlik vazifalari. Bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanishini dinamikada kuzatish va baholash usullari. Tibbiy profilaktika ishini takomillashtirish, bolalar va o‘smirlar salomatligini mustahkamlash tadbirlari. Bolalar va o‘smirlar ovqatlanishining fizikaviy me‘yorlari, ovqatlanish tartibi va ovqatdan zaharlanishlarni oldini olish chora-tadbirlari.

2.5. Modul. Mehnat gigienasi. Mehnat sharoitiga qo‘yiladigan sanitariya gigienik talablar.

Mehnat gigienasi asoslari va vazifalari. Mehnat to‘g‘risida me‘yoriy xujjatlar. Mehnat jarayonida zararli omil ta‘sirini o‘rganish. Sanitariya vrach yordamchisining sanitar nazorati o‘tkazishdagi o‘rni, uning huquq va vazifalari. Sanitariya qoidalari va me‘yorlariga rioya etish, nazorat qilish usullari. Mehnat va zaharli ximikatlar gigienasi. Havfli va zararli ishlab chiqarish omillarining tasnifi. Zararli mahsulot va chiqindilarni zararsizlantirish, utilizatsiya qilish usullarini ishlab chiqish. Kasb kasalliklari haqida tushuncha. Zaharlarning organizmga kirish va yig‘ilish yo‘llari va uning ta‘sirini belgilaydigan omillar. Mehnatni muhofaza qilish sohasida sanitariya-gigiena me‘yoriy qoidalarini ishlab chiqish va taqdim etish. Kasb kasalliklari, turlari. Tibbiy profilaktika shifokori yordamchisining huquq va burchlari. Sanitariya vrach yordamchisi ish faoliyatida qo‘llaniladigan asosiy me‘yoriy xujjatlar va ular bilan ishlash. Kasb kasalliklarini keltirib chiqaruvchi

sabablar va omillar. Havo namunalarini olish va tahlil natijalarini qayd qilish. Ishlab chiqarishdagi yoritilganlikni o'lash, kichik korxonalarni tekshirish.

2.6. Modul. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish.

DPMlarda sanitariya-epidemiologiya tartibini olib borish usullari. DPMlarda sanitariya-epidemiologiya tartibi va ularga amal qilish. Infekcion nazorat komissiyasi va ularning vazifalari. San QvaM 0342-17 va San QvaM 0317-15 mazmun-mohiyati. Shifoxona ichi infeksiyalari, sabablari, turlari. Shifoxona ichi infeksiyalari etiologiyasini aniqlash yo'llari, doimiy epidemiologik kuzatuvni yuritish. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish va unga qarshi kurash choralari. Shifoxona ichi infeksiyasi profilaktikasi bo'yicha amalga oshiriladigan sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar. DPMlarda tibbiy chiqindilar tasnifi DPMlarda tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilish usullari. Zararsizlantirish, zararsizlantirish usullari. Dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya va sterilizatsiya usullarini o'tkazish.

2.7. Modul. Davolash profilaftika muassasalari gigienasi. Kasalxonalar joylashishi va faoliyatiga qo'yilgan gigienik talablar.

DPM lar turlari va faoliyati. Amaldagi me'yoriy xujjatlar. DPM larda dezinfeksion tartibga rioya qilish Davlat sanitariya nazoratini olib borishda o'rta tibbiy xodimlarining o'rni. Davlat sanitariya nazorati, gigienik normalar, standartlar, qoidalar, qonuniy hujjatlar bilan ishlash. Sanitar qoidalarini buzganlik to'g'risidagi bayonnoma. Ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratini o'tkazishda ishlatiladigan me'yoriy xujjatlar. Atrof muhit faktorlaridan (suv, tuproq, havo, oziq-ovqat mahsulotlari) olingan namunalar natijalarini tahlil qilish.

2.8. Modul. Immunoprofilaktika. Vaksinalarni saqlash, transportirovka qilish.

Immunitet to'g'risida tushuncha, turlari. Yuqumli kasalliklar manbai, ularni tarqalish yo'llari va sabablarini aniqlash Epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish, aholi o'rtasida immunizatsiya ishlarini tashkil etish. Emlanishi lozim bo'lgan aholi soni hisobotini olib borish. Aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarning maxsus profilaktikasini olib borish bo'yicha me'yoriy hujjatlar. Aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarga qarshi emlash, ularni jalb qilish. Yuqumli kasalliklar bilan kasallanishni kamaytirish. Rejali ravishda emlashning ahamiyati. Vaksinalar, turlari, olinish usullari, ta'sir mexanizmi. Vaksinalarni saqlash, transportirovka qilish. Emlashga taalluqli bo'lgan hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi, hisobot tuzish va monitoringini yuritish. Emlashdan keyingi asorat va nojo'ya ta'sirlarini aniqlash. Anafilaktik shokda shoshilinch yordam ko'rsatish.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi - Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari/

Multimediali jamlanma: elektron doska, slaydlar to'plami bo'lgan ppt ko'rinishli ma'ruzalar, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar, tarqatma materiallar, nazorat savollarining elektron ko'rinishi, vaziyatli masalalar, va test savollari.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI.

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.

3.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarini yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.

4.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining me'yoriy hujjatlari.

4.3.2. Asosiy adabiyotlar:

1. SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 yil

2. Yu.Allayorov Yu.Tojiboev "Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari."

3. Azizov M.A. «Umumiy gigiena va ekologiya» Toshkent, «Ilm ziyo», 2014 yil.

4. Esonturdiyev S.S, Qarshiboeva M.E, «Gigiena va sanitariya tekshirishlar texnikasi» Toshkent, «Ilm ziyo», 2007 yil.

5. Do'schanov D.A, Iskandarova Sh.T, Solixojaev S.S. «Umumiy gigiena» Toshkent, «Ilm ziyo», 2001 yil.

6. A.B.Ganixojaeva, X.A.Nazarova. «Mikrobiologiya» Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2014 yil.

7. E.E.Eshboev «Mikrobiologiyadan amaliy mashg'ulotlar» Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2011 yil

8. Fayziev Y.M., Fayzieva X.A. "Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya» Toshkent, "Ilm ziyo" nashriyoti, 2007 yil

9. Bo'ronov M.A, Mirjonov K.M. "Tibbiyot parazitologiyasi va epidemiologiya asoslari". Toshkent, "Ilm ziyo" nashriyoti, 2004 yil

4.3.3. Elektron ta'lim resurslari:

O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – www.edu.uz

O'zR Sog'liqni saqlash vazirligi - www.minzdrav.uz

Medpoisk <http://www.medpoisk.ru/>

Russkiy meditsinskiy server <http://www.rusmedserv.com/>

Meditsinskiy katalog ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>

www.adti.uz

<http://www.medlinks.ru>

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom" asosida o'tkaziladi.